

FARG'ONA VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2022- yil 1-oktabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Korxona va tashkilotlar soni


(2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnila, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'nga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

4



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




■ 2021- y. ■ 2022- y.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022-yil yanvar-sentabr oyida)

5






Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar

(2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

6




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,8** foizga oshdi



Dehqonchilik, chorvachilik,
ovchilik va bu sohalarda xizmat
ko'rsatish

O'rmon xo'jaligi

Baliqchilik xo'jaligi




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


7



*Jami faoliyat
ko'rsatayotgan sanoat
korxonasi va
tashkilotlarning
umumiyligi o'tgan
yilning shu davriga
nisbatan 4,2 foizga
oshdi*




■ Kichik korxonalar ■ Mikrofirmalar ■ Kichik tadbirkorlik subyektlari



2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 10,7 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,2%ga oshdi.

Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 103,4%ga (jami sanoatdagi ulushi 96,0%), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 104,1%ga (jami sanoatdagi ulushi 2,0%), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 136,4%ga (jami sanoatdagi ulushi 0,8%) va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 96,9%ga (jami sanoatdagi ulushi 1,2%) o'sishidir.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni (2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **15,7** foizga oshdi



Kichik tadbirdorlik subyektlari soni



15,7
foizga oshdi



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



22,6
foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




20,3
foizga oshdi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan
14,2 foizga oshdi



Xususiy korxonalar




2,3
foizga oshdi



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

10



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

11

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

1098



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

57



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

76



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



182 yashash
bo'yicha xizmatlar



2 699
Oziq-ovqat mahsulotlari
va ichimliklar yetkazish
bo'yicha xizmatlar


2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2,8 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,4 %ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishiining asosiy omili – oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar – 112,1%ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 93,7%), yashash bo'yicha xizmatlarning – 117,4%ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 6,3 %) o'sishidir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni


(2022- yil 1-oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

12




Axborot va aloqa sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

13



Tashish va saqlash sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)




Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Oilaviy korxonalar soni (2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra 6,9 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 836 taga yoki 113,7%ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 6,4 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 588 taga yoki 110,0%ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 1055 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'zgarishsiz.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni


(2022-yil 1- sentabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- oktabr holatiga ko'ra 27,5 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,2 mingtaga yoki 117,8 %ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 26,2 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,5 mingtaga yoki 115,3%ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022-yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 4333 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 67 taga yoki 98,5%ga kamayganni ko'rish mumkin.






Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2022-yil 1-oktbar holatiga ko'ra 588 tani tashkil etib, ulardan 573 tasi yoki 97,4% faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 57 taga yoki 111,0%ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022-yilning yanvar-sentabr oylarida viloyatimizda 51 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022-yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)



Farg'ona viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


18

	<i>Jami</i>	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxona</i>	<i>xorijiy korxona</i>
Belarussiya Respublikasi	8	5	3
Ozarbayjon Respublikasi	8	3	5
Qirg'iziston Respublikasi	38	28	10
Qozog'iston Respublikasi	16	14	2
Rossiya Federatsiyasi	144	102	42
Tojikiston Respublikasi	14	10	4
Ukraina Respublikasi	3	2	1

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

19



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil
Jami	254	387	431	516	573
<i>shu jumladan:</i>					
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	6	25	26	27	28
Sanoat	172	229	248	279	298
Qurilish	7	9	12	24	33
Savdo	32	68	75	106	121
Tashish va saqlash	6	9	13	13	15
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	11	13	15	16	17
Axborot va aloqa	2	4	4	4	6
Sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	5	8	8	9	10
Boshqa turlar	13	22	30	38	45

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

20



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

21

	Jami	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Farg'ona viloyati	573	348	225
Oltiariq tumani	26	17	9
Qo'shtepa tumani	10	8	2
Bag'dod tumani	15	11	4
Buvayda tumani	12	8	4
Beshariq tumani	11	5	6
Quva tumani	21	11	10
Uchko'prik tumani	22	13	9
Rishton tumani	13	9	4
So'x tumani	7	7	
Toshloq tumani	19	11	8
O'zbekiston tumani	28	22	6
Farg'ona tumani	25	16	9
Dang'ara tumani	22	11	11
Furqat tumani	12	7	5
Yozyovon tumani	7	2	5
Farg'ona shahar	181	102	79
Qo'qon shahar	77	39	38
Quvasoy shahar	35	28	7
Marg'ilon shahar	30	21	9

Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)


22



2022-yil 1-oktabr holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar 54 254 tani tashkil etib, hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Farg'ona shahar (16,3 %), Qo'qon shahar (11,6 %), Marg'ilon shahar (8,8 %), Uchko'prik tumani (5,0 %), Dang'ara tumani (5,0%), Oltiariq tumani (4,9 %), O'zbekiston tumani (4,8 %), Quva tumani (4,8 %), Buvayda tumani (4,7 %), Toshloq tumani (4,6 %), Farg'ona tumani (4,1 %), Bag'dod tumani (3,8 %), Rishton tumani (3,8 %), Beshariq tumani (3,7 %), Quvasoy shahar (3,4 %), Qo'shtepa tumani (3,3 %), Furqat tumani (2,7%), So'x tumani (2,4%), Yozyovon tumani (2,2%) hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni (2022-yil yanvar-sentabr oylarida, birlikda)


2022-yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar 6 803 tani tashkil etib, hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning ulushi Farg'ona shahar (14,2 %), Qo'qon shahar (9,5 %), Marg'ilon shahar (6,3 %), Toshloq tumani (6,0 %), Dang'ara tumani (5,4 %), Beshariq tumani (5,1 %), Oltiariq tumani (5,1 %), Buvayda tumani (5,1 %), O'zbekiston tumani (5,1 %), Rishton tumani (4,6 %), Quva tumani (4,4 %), Bag'dod tumani (4,3 %), Uchko'prik tumani (4,2 %), Farg'ona tumani (4,1 %), Qo'shtepa tumani (4,1 %), Quvasoy shahar (3,9 %), Furqat tumani (3,0 %), Yozyovon tumani (2,8 %), So'x tumani (2,8 %), hissalariga to'g'ri keladi.



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni


(2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)

23



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, birlikda)



**Hududlar kesimida jami faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital
ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxona va xorijiy
korxonalarga taqsimlanishi**

(2022-yil 1- oktabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, %da)

24



2017-2021-yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish etib belgilangan. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnomaga tusidagi, vaqtiga vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Farg'onona viloyati statistika
boshqarmasi Statistik
registrlarni yuritish bo'limi
Tel.:73 244-65-76**